


XIII. DEMOGRAFIK HOLAT VA BANDLIK

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning 1 yanvar holatiga viloyatda doimiy aholi soni 2 931,1 ming kishini tashkil qildi va yil boshiga nisbatan 63,6 kishiga yoki 2,2 % ga ko'paydi. Shundan, 1 899,5 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 64,8 %) va 1 031,6 ming kishi – qishloq joylarida (35,2 %) istiqomat qiladi.

**Namangan viloyati hududlari bo'yicha doimiy
aholi soni to'g'risida ma'lumot
(2022- yilning 1 yanvar holatiga)**

	Doimiy aholi soni, ming kishi		
	jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq
Viloyat jami	2931,1	1899,5	1031,6
Namangan sh.	661,1	661,1	0,0
Mingbuloq	131,2	45,5	85,7
Kosonsoy	217,7	131,0	86,7
Namangan	183,8	55,4	128,4
Norin	169,3	77,7	91,6
Pop	226,9	129,2	97,7
To'raqo'rg'on	233,5	135,3	98,2
Uychi	222,1	107,8	114,3
Uchqo'rg'on	178,1	76,4	101,7
Chortoq	206,2	137,7	68,5
Chust	274,5	186,7	87,8
Yangiqo'rg'on	226,7	155,7	71,0

**Namangan viloyati shahar va qishloqlar
bo'yicha aholi soni to'g'risida ma'lumot
(2022- yilning 1 yanvar holatiga, ming kishi)**



Shuningdek, viloyatdagi jami doimiy aholining 1 489,1 ming tasi erkaklar (jami aholi sonining 50,8 %) va 1 442,0 ming tasi ayollarni (49,2 %) tashkil etadi.

Viloyatning hududiy maydoni 7,444 ming kv.km.ni tashkil etib, aholi zichligi 1 kv.km.ga o'rtacha 393,8 kishi to'g'ri keladi. Aholi zichligi yuqoriligi bo'yicha shahar va tumanlar kesimida tahlil qilib ko'rilmaga, Namangan shaharda 1 kv.km.ga o'rtacha 4 407,3 kishi, Namangan tumanida 1 kv.km.ga o'rtacha 904,6 kishi va To'raqo'rg'on tumanida 1 kv.km.ga o'rtacha 856,1 kishi to'g'ri kelmoqda.

Aholi zichligi past bo'lgan tumanlar kesimida tahlil qilib ko'rilmaga, Pop tumanida 1 kv.km.ga o'rtacha 78,0 kishi, Mingbuloq tumanida 1 kv.km.ga o'rtacha 177,1 kishi va Chust tumanida 1 kv.km.ga o'rtacha 292,8 kishi to'g'ri kelmoqda.

2022- yil 1 yanvar holatiga hududlar kesimida aholi zichligi

(1 km kv kishi)




**Namangan viloyati hududlari bo‘yicha doimiy
aholi soni to‘g‘risida ma’lumot
(2022- yilning 1 yanvar holatiga)**

	Doimiy aholi soni, ming kishi		
	jami	shu jumladan:	
		erkak	ayol

Viloyat jami	2931,1	1489,1	1442,0
Namangan sh.	661,1	340,2	320,9
Mingbuloq	131,2	66,7	64,5
Kosonsoy	217,7	111,0	106,7
Namangan	183,8	93,9	89,9
Norin	169,3	86,2	83,1
Pop	226,9	114,0	112,9
To‘raqo‘rg‘on	233,5	118,1	115,4
Uychi	222,1	111,1	111,0
Uchqo‘rg‘on	178,1	89,2	88,9
Chortoq	206,2	103,2	103,0
Chust	274,5	140,3	134,2
Yangiqo‘rg‘on	226,7	115,2	111,5

Namangan viloyati hududlari bo‘yicha aholining jinsi soni to‘g‘risida ma’lumot
(2022- yilning 1 yanvar holatiga, ming kishi)



Aholining tabiiy harakati
(yanvar-dekabr)


	Kishi			har 1000 kishiga	
	2020- yil	2021- yil ¹⁾	o‘sish, kamayish	2020- yil	2021- yil ¹⁾
Tug‘ilganlar	74 720	79 976	5 256	26,3	27,6
Vafot etganlar	13 536	13 542	6	4,8	4,7
Tabiiy o‘sish	61 184	66 434	5 250	21,5	22,9
Nikohlar	24 955	25 022	67	8,8	8,6
Ajralishlar	2 104	3 152	1 048	0,7	1,1

¹⁾dastlabki ma’lumot

Aholining tabiiy harakati koeffitsiyenti

2021- yil yanvar-dekabr oylarida

(1000 aholiga nisbatan, promille)




Tug'ilish darajasi. 2021- yil yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni 79 976 kishini tashkil qildi va 2020- yilning mos davriga (74 720 kishi) nisbatan 5 256 taga ko'paydi. Tug'ilish koeffitsiyenti mos ravishda 27,6 promilleni tashkil qildi va 2020-yilning mos davriga (26,3 promille) nisbatan 1,3 promillega o'sish bo'ldi.

Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning Namangan shahrida (29,6 dan, 31,0 promillega), Norin tumanida (24,2 dan 25,0 promillega) va Yangiqo'rg'on (25,7 dan 27,0 promillega) tumanlarida kuzatildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlarda tug'ilish darajasi

(1000 aholiga nisbatan, promille)




O'lim darajasi. 2021- yil yanvar-dekabr oylarida vafot etganlar soni 13 542 kishini tashkil qildi. 2020- yilning mos davriga (13 536kishi) nisbatan 6 taga ko'paydi. Mos ravishda o'lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil qildi (2020- yil yanvar-dekabr oylarida – 4,8 promille).

Vafot etganlar soni ko'payishi Mingbuloq tumanida (4,2 dan 4,5 promillega) tumanida kuzatildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlarda o'lim darajasi

(1000 aholiga nisbatan, promille)



Nikohlar va ajralishlar. 2021- yil yanvar-dekabr oylariida FHDYO organlarida 25 022 ta nikohlar va 3 152 ta ajralishlar ro'yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan promilleda 8,6 nikoh (2020- yilning tegishli davrida – 8,8) va 1,1 ajralishlar (2020- yilning mos davrida – 0,7) to'g'ri keladi.


**2021- yil yanvar-dekabr oylarida tuzilgan nikohlar
va nikohdan ajralishlar soni**

(birlik)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil
Viloyat jami	24 955	25 022	2 104	3 152
Namangan sh.	4 894	5 451	411	854
Mingbuloq	1 139	1 086	86	109
Kosonsoy	1 881	1 775	164	184
Namangan	1 650	1 573	105	177
Norin	1 467	1 339	145	191
Pop	1 810	1 943	202	253
To‘raqo‘rg‘on	2 189	2 036	189	228
Uychi	2 098	1 939	167	229
Uchqo‘rg‘on	1 604	1 558	156	200
Chortoq	1 716	1 724	122	203
Chust	2 579	2 477	235	336
Yangiqo‘rg‘on	1 928	2 121	122	188


Tumanlar (shahar) kesimida nikox tuzganlar soni va koeffitsiyenti

(2021- yil yanvar-dekabr holatiga 1000 aholiga nisbatan, promille)



Tumanlar (shahar) kesimida nikoxdan ajralish soni va koeffitsiyenti


(2021- yil yanvar-dekabr holatiga 1000 aholiga nisbatan, promille)



Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3142 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 5951 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i manfiy -2809 kishiga (2020- yilning mos davrida - manfiy -4586 kishi) teng bo'ldi. Eng katta manfiy qoldiqlar Namangan shahrida (manfiy -621), Chust (manfiy -551), Pop (manfiy -252), Chortoq (manfiy -255) tumanlarida kuzatildi.


Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib kelganlar soni

(2021- yil yanvar-dekabr)




Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib ketganlar soni

(2021- yil yanvar-dekabr)



**2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida
doimiy aholi sonining taqsimlanishi**




**2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida doimiy
aholi sonining taqsimlanishi**

	Doimiy aholi soni		
	2020- yil	2021- yil	O'sish +/-
Viloyat jami	2 867,5	2 931,1	63,6
Namangan sh.	644,8	661,1	16,3
Mingbuloq	128,4	131,2	2,8
Kosonsoy	212,9	217,7	4,8
Namangan	179,8	183,8	4,0
Norin	166,1	169,3	3,2
Pop	222,7	226,9	4,2
To'raqo'rg'on	228,0	233,5	5,5
Uychi	216,8	222,1	5,3
Uchqo'rg'on	174,6	178,1	3,5
Chortoq	202,2	206,2	4,0
Chust	269,3	274,5	5,2
Yangiqo'rg'on	221,9	226,7	4,8

Viloyatda o‘rtacha oylik ish xaqi 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 2 402,3 ming so‘mni tashkil etib, viloyat xududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, yani o‘rtacha oylik ish xaqining yuqori miqdori Namangan shahrida 2 979,6 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish xaqiga nisbatan 124,0 %) va To’raqo‘rg‘on tumanida 2 411,9 ming so‘mni (100,4 %) tashkil etgan.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish xaqi
(Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish xaqiga nisbatan % da)



Namangan viloyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish xaqi
*(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirdorlik subyektlaridan
tashqari, ming so‘m)*

	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr	O‘sish sur’ati, % da
Viloyat jami	2 066,2	2402,3	116,3
Namangan sh.	2 480,4	2979,6	120,1
Mingbuloq	1707,9	2092,5	122,5
Kosonsoy	1789,6	1968,4	110,0
Namangan	1877,6	2323,5	123,7
Norin	1801,4	2141,6	118,9
Pop	1830,3	2114,2	115,5
To‘raqo‘rg‘on	2164,0	2411,9	111,5
Uychi	1843,4	2074,3	112,5
Uchqo‘rg‘on	2103,8	2191,9	104,2
Chortoq	1649,8	1835,5	111,3
Chust	1609,6	1780,8	110,6
Yangiqo‘rg‘on	1950,2	2237,3	114,7

**Namangan viloyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan
ish xaqi sohalar kesimida**
*(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari)*

	Xodimlar soni (kishi)	O‘rtacha oylik ish haqi (ming so‘m)
--	----------------------------------	--

Viloyat jami	175 092	2 402,2
---------------------	----------------	----------------

shu jumladan:

Sanoat	22 224	2 226,6
Qurilish	1 708	3 645,4
Savdo	1 640	2 861,7
Tashish va saqlash	2 174	2 342,4
Axborot va aloqa	1 209	2 927,2
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	2 939	5 688,3
Ta’lim	80 327	2 303,9
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	38 301	1 942,7
Boshqa faoliyat turlari	24 570	2 818,1

**2021- yil yanvar-dekabr oylarida Namangan viloyati bo‘yicha o‘rtacha
oylik nominal hisoblangan ish xaqi sohalar kesimida
(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan
tashqari, ming so‘m)**

■ O‘rtacha ish haqi ming so‘mda

